



QISHLOQ XO'JALIGI MOLİYALASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

PhD, dots. **Alikulov Mekhmonali Salakhiddin ugli**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-5981-885X

mehmonali1992@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligi moliyalashtirishdagi muammolar va yechimlar bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar va yechimlari tavsiflangan, qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlar TOP 7 ligining qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda muammolari va ularning yechimlari tahlil qilingan hamda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi moliyalashtirishdagi muammolarni yechish bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, moliyalashtirish, kredit, investitsiya, moliyaviy barqarorlik, subsidiya, moliyaviy savodxonlik, imtiyozli kreditlash, sug'urta, innovatsion texnologiya, xalqaro moliyaviy institutlar.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОМ ФИНАНСИРОВАНИИ

к.э.н., доц. **Аликулов Мехмонали Салахиддин угли**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются взгляды ведущих ученых мира на проблемы и пути их решения в сельскохозяйственном финансировании, описываются существующие проблемы и пути их решения в сельскохозяйственном финансировании, анализируются проблемы и пути их решения в сельскохозяйственном финансировании в 7 странах с развитым сельским хозяйством, а также обсуждается развитие сельскохозяйственного финансирования в нашей стране. Даны обоснованные выводы и предложения по решению проблем в сельскохозяйственном финансировании.

Ключевые слова: сельское хозяйство, финансирование, кредит, инвестиции, финансовая стабильность, субсидии, финансовая грамотность, льготное кредитование, страхование, инновационные технологии, международные финансовые институты.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN AGRICULTURAL FINANCING

PhD, assoc. prof. **Alikulov Mekhmonali Salakhiddin ugli**

Tashkent State University of Economics

Abstract. The article studies the views of leading world scientists on problems and solutions in agricultural financing, describes existing problems and solutions in agricultural financing, analyzes the problems and solutions in agricultural financing in the top 7 most developed agricultural countries, and provides substantiated conclusions and proposals for solving problems in agricultural financing in our country.

Keywords: agriculture, financing, credit, investment, financial stability, subsidies, financial literacy, preferential lending, insurance, innovative technology, international financial institutions.

Kirish.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki millionlab odamlar bandligini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu sohaning barqaror rivojlanishi nafaqat mamlakat iqtisodiyoti, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy holati uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, qishloq xo'jaligini moliyalashtirish masalasi har doim dolzarb hisoblanib, uning to'g'ri yo'lga qo'yilishi ushbu sektorda yuqori samaradorlikka erishishning asosiy shartlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Moliyalashtirishdagi bunday muammolar qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligi va samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, kreditlarning yuqori foiz stavkalari, uzoq muddatli investitsiyalarning kamligi, zamonaviy texnologiyalarni xarid qilish uchun mablag' yetishmovchiligi fermer xo'jaliklarining mahsuldorligini pasaytiradi va bozor talablari bilan raqobatlashuvini cheklaydi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligidagi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga yetishish imkoniyatlari cheklangan bo'lib, bu ularning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu masala ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar va qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lgan mamlakatlar uchun dolzarbdir.

Qishloq xo'jaligini samarali moliyalashtirish masalasini hal qilish uchun mavjud muammolarga kompleks yondashuv talab etiladi. Bu, bir tomondan, davlat tomonidan fermerlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirishni, ikkinchi tomondan esa xususiy sektorni jalb qilish orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Bunda subsidiyalar, grantlar, imtiyozli kreditlar, sug'urta tizimlarini joriy etish va rivojlantirish, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish kabi choralarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ushbu mavzu bo'yicha tahlil qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimidagi mavjud to'siqlarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish orqali bu sohaning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu masala nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham keng ko'lamli ahamiyatga ega bo'lib, qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash va jamiyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida qishloq xo'jaligi moliyalashtirishdagi muammolar va yechimlar bo'yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib. Ulardan, Qosimov (2020) tomonidan "Qishloq xo'jaligida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat subsidiyalarining adolatli taqsimlanishi, fermerlarning moliyaviy savodxonligini oshirish va imtiyozli kreditlash tizimini rivojlantirish zarurligi" takidlangan.

Xoliqov (2018) o'z darsligida "Qishloq xo'jaligidagi asosiy muammolardan biri – resurslarning notekis taqsimlanishi va kichik fermer xo'jaliklarining moliyalashtirish imkoniyatlaridan chetda qolishidir. Buning uchun davlat tomonidan kichik xo'jaliklar uchun maxsus moliyalashtirish dasturlarini yo'lga qo'yish taklif etiladi" takidlagan.

Karimov (2019) o'z ilmiy ishlarida "Sug'urta tizimining rivojlanmaganligi va moliyaviy vositalarning chegaralanganligi qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Sug'urta tizimini modernizatsiya qilish va fermerlarga moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish kerakligini" takidlagan.

Pingali (2007), (FAO eksperti) o'z ilmiy ishlarida "Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda uzoq muddatli kreditlashning rivojlanmaganligi va iqlim o'zgarishiga moslashgan moliyaviy mexanizmlarning cheklanganligi asosiy muammolar hisoblanadi" kabi fikrlarni bildirgan.

Morduch (1999), tomonidan "Kichik fermer xo'jaliklarining barqarorligini oshirish uchun mikro-moliyalashtirish dasturlarini rivojlantirish zarur. Ushbu dasturlar kichik fermerlarga garov talab qilmasdan moliyaviy yordam berish imkonini yaratadi" takidlagan.

Binswanger and Deininger (1997) o'zining tadqiqotlarida "Qishloq xo'jaligida yer va kredit bozorlarini isloh qilish orqali moliyalashtirish mexanizmlarini yaxshilash mumkin. Yer

egalik huquqlarining mustahkamlanishi fermerlarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi” deb takidlaydilar.

Zander va Drucker (2008) o'zining tadqiqotlarida “Ekologik qishloq xo'jaligini moliyalashtirish muhim bo'lib, uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan dasturlarni moliyaviy rag'batlantirish lozim” deb takidlaydilar.

Jabborov (2021) qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va moliyaviy yordamlardan foydalanishga urg'u beradi. Uning fikricha, qishloq xo'jaligi tarmoqlaridagi muammolarni hal qilish uchun fermerlarga nisbatan moliyaviy yordamlarning samarali taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. Jabborov moliyaviy yordamlarning maqsadli va shaklli joylashuvini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.

Sokolova (2022) “qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi davlatning o'zgarib boradigan o'rni va xususiy sektor bilan hamkorlikdagi imkoniyatlarga e'tibor qaratmoqda. Uning fikricha, moliyalashtirish usullarini rivojlantirish uchun xususiy investisiyalar va kreditlar muhim ahamiyatga ega, chunki davlatning o'z yordami faqat bir vaqtning o'zida faoliyat ko'rsatadi, ammo yangi muammolarni hal qilish uchun xususiy sektorning qatnashishini samarali shaklda tashkil qilish zarur”.

Albatta yuqoridagi olimlarning qarshlari zamon va makondan kelib chiqqan holda berilgan va o'z davrida dolzarblik kasb etgan. Lekin, ba'zi qarashlar bugungi kunga kelib ham o'z yechimini topmaganini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Qishloq xo'jaligi moliyalashtirishdagi muammolar va yechimlar bo'yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma'lumotlarni to'plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qishloq xo'jaligi har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng muhim va strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoq nafaqat aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, jumladan, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini xomashyo bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biridir.

Bugungi global sharoitda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi jahon hamjamiyati uchun tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Aholi sonining tez o'sishi, iqlim o'zgarishi va cheklangan tabiiy resurslar mavjud sharoitda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi yuqori xavf darajasi bilan ajralib turadi. Tabiiy ofatlar, global iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, toshqinlar va zararkunandalarning ko'payishi kabi xavflar ushbu sektorning iqtisodiy samaradorligini pasaytirishi va moliyaviy barqarorligini buzishi mumkin. Bu esa qishloq xo'jaligini moliyalashtirishni yanada dolzarb masalaga aylantiradi.

Qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarda ham davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar, imtiyozli kreditlar va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng qo'llaniladi. Ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi subyektlari, ayniqsa kichik va o'rta fermer xo'jaliklari, moliyaviy resurslarga yetarli darajada ega emasligi sababli ushbu soha to'laqonli rivojlanmayapti. Bundan tashqari, bank va moliyaviy institutlarning qishloq xo'jaligiga bo'lgan e'tibori pastligi, uzoq muddatli investitsiyalarning yetishmasligi, moliyalashtirishning yuqori xavf darajasi va moliyaviy bilimlarning yetarli emasligi ushbu masalani yanada murakkablashtiradi.

Mamlakatlararo raqobat sharoitida qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini ta'minlash, yuqori hosildorlikka erishish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish zarur. Xususan, moliyaviy resurslarning

yetishmasligi yoki ularni samarali taqsimlashning qiyinchiliklari nafaqat hosildorlikni pasaytiradi, balki oziq-ovqat narxining oshishi va aholining ijtimoiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yana bir dolzarb masala – qishloq xo'jaligida sug'urta tizimining rivojlanmaganligi. Sug'urta tizimi zaif bo'lgani sababli, ko'pchilik fermerlar tabiiy ofatlar va boshqa xavflarga qarshi himoyasiz bo'lib qolmoqda. Bu esa ularning moliyaviy barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan mablag'larning yetishmovchiligi sohaning zamonaviy talablar bilan moslashishiga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, zamonaviy sug'orish tizimlari, yuqori mahsuldor urug'lar, kimyoviy moddalar va texnikalarni joriy etish uchun katta mablag' talab etiladi. Bu mablag'larning yetishmovchiligi esa hosildorlikni oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Yuqoridagi mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlarini va qarashlarni o'rgangan holda qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda bir qator muammolar borligini aniqladik va muammolarga yechimlar taklif qildik.

1-jadval

Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar va yechimlari

MUAMMO	SABABLARI	YECHIMLAR
Moliyaviy resurslarning yetishmasligi	Fermer xo'jaliklarining kapitali cheklangan, kredit olish imkoniyatlari past	Davlat subsidiyalari va imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish
Kredit olishdagi qiyinchiliklar	Kredit stavkalarining yuqoriligi, kafolat ta'minotining murakkabligi	Kichik va o'rta fermerlar uchun imtiyozli kreditlar, davlat tomonidan kafolat sxemalarini ishlab chiqish
Sug'urta tizimining rivojlanmaganligi	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tabiiy ofatlar va boshqa xavflarga yuqori darajada ta'sirchanligi	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun samarali sug'urta tizimini yo'lga qo'yish
Investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar	Investorlar uchun xavf darajasining yuqoriligi va foyda olishning uzoq muddatligi	Xorijiy va mahalliy investorlar uchun soliq imtiyozlari va qo'shimcha rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar
Moliyaviy savodxonlikning pastligi	Fermerlarning moliyaviy rejalashtirish va boshqaruv ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi	Fermerlar uchun moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil etish
Innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi cheklovlar	Zamonaviy texnika va texnologiyalarni sotib olish uchun mablag' yetishmasligi	Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus moliyalashtirish dasturlarini ishlab chiqish
Bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi	Logistika va saqlash tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi	Bozor infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat va xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish
Uzoq muddatli moliyaviy manbalar yetishmasligi	Moliyalashtirishning qisqa muddatligi, uzoq muddatli resurslarning cheklanganligi	Uzoq muddatli investitsiya kreditlarini joriy etish va banklarni qishloq xo'jaligiga jalb qilish
Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikdagi qiyinchiliklar	Xalqaro donor va moliyaviy tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik tajribasining cheklanganligi	Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish va grantlarni jalb qilish

Ushbu jadval orqali qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi asosiy muammolar va ularning yechimlarini tizimli ravishda tahlil qilish va sektorni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash mumkin.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i moliyalashtirish muammolariga yechim topish faqat agrar sektorning emas, balki butun iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanishi mumkin:

- Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro va milliy vazifalarning dolzarbligi;

- Aholining o'lishi bilan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi;
- Qishloq hududlarida yashovchi aholi daromadlarini oshirish va bandlikni ta'minlash zarurati;
- Milliy eksport salohiyatini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro bozorlarda raqobatbardosh qilish;
- Fermer xo'jaliklarining moliyaviy resurslarga yetarli darajada ega emasligi;
- Bank va moliyaviy institutlarning qishloq xo'jaligi sohasiga kredit ajratishda sust faolligi;
- Sug'urta tizimining rivojlanmaganligi tufayli tabiiy ofatlar oqibatida katta zarar ko'rilishi;
- Innovatsiyalarni joriy etish uchun mablag'larning yetarli darajada ajratilmasligi;
- Fermerlarning moliyaviy bilim va ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.
- Iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslar tanqisligi sharoitida tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlash ehtiyoji.

Shu sababli, qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi mavjud muammolarni tahlil qilish, ularni hal qilish yo'llarini izlash va samarali moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa milliy va xalqaro darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlar TOP 7 ligi

Mamlakat	Qishloq xo'jaligining ahamiyati	Asosiy mahsulotlar
AQSH	Dunyoning eng yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi, ilg'or texnologiyalar va ilmiy-tadqiqotlar orqali rivojlanmoqda.	Don, soya, makkajo'xori, paxta, go'sht, sut mahsulotlari
Germaniya	Yevropada qishloq xo'jaligi texnologiyalari va ekologik qishloq xo'jaligiga e'tibor qaratilmoqda, barqaror rivojlanish tamoyillari qo'llaniladi.	Soya, makkajo'xori, kartoshka, guruch, go'sht, sut mahsulotlari
Fransiya	Yevropada qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida yetakchi, ekologik qishloq xo'jaligi rivojlanmoqda.	Sharob, bug'doy, guruch, kartoshka, sut, go'sht mahsulotlari
Yaponiya	Kichik yer maydonlari bilan samarali qishloq xo'jaligi, innovatsion texnologiyalar va aqlli qishloq xo'jaligi tizimlarini qo'llash.	Guruch, sabzavotlar, baliq, sut va go'sht mahsulotlari
Kanada	Yirik yer maydonlari, intensiv qishloq xo'jaligi va innovatsiyalar orqali samaradorlikni oshirayotgan mamlakat.	Bug'doy, arpa, arpabodiyon, soya, jujuba, kartoshka, go'sht, sut mahsulotlari
Avstraliya	Keng yer maydonlari va iqlim sharoitlari bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirgan, ekologik qishloq xo'jaligi sanoati rivojlanmoqda.	Bug'doy, arpa, paxta, go'sht, sut mahsulotlari, mevalar
Niderlandiya	Kichik hududga ega bo'lsa-da, samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va yuqori texnologiyalarni qo'llash orqali dunyoda yetakchi.	Sabzavotlar, gullar, sut, go'sht

Qishloq xo'jaligi moliyalashtirishdagi muammolar va yechimlar mavzusidagi tadqiqotimizni xalqaro darajadagi tahlillar bilan kengroq ochib beramiz. Shuningdek, biz tadqiqotimizni olib borish davomida bir qator omillarni chetga surishga qaror qoldik. Sababi qishloq xo'jaligi bu bugun paydo bo'lgan yangicha soha yoki mexanizm emas. Shu sababli biz imkon qadar mamlakatimizda qishloq xo'jaligini har tomonlama taraqqiy etishini bosh maqsad qilib olgan holda rivojlantirishga asosiy urg'uni bermoqdamiz. Asosiy maqsadimiz ushbu sohani taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ham moliyaviy, ham boshqaruv qarorlarini hamda islohatlarni yoki mexanizmlarni ishlab chiqishdan iboratdi. Shu maqsadda biz qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan mamlakatlardagi mavjud amaliyotlarni tahlil qilishdan boshladik. Albatta,

muakkammal tizim mavjud emas, lekin yaxshi natijalar ko'rsatayotgan va o'zini oqlayotgan bir qator iqtisodiy strategiyalar mavjud ekanligini guvohi bo'ldik. Quyida bir qator o'zining ijobiy natijalariga ega bo'lgan davlatlarning tajribalarini ulardagi mavjud muammolarni keltiramiz:

Qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlar qatorida AQSH, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Avstraliya va Niderlandiya kabi mamlakatlar yetakchilik qiladi. Ushbu mamlakatlarda qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va bozor tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularning tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham foydali bo'lishi mumkin, chunki ular samarali qishloq xo'jaligi tizimlarini yaratish bo'yicha o'z tajribalarini baham ko'rishmoqda.

Jadvalda rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligi sektori haqida qisqacha ma'lumot, asosiy mahsulotlar va ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati ko'rsatilgan. Bu mamlakatlar innovatsiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, va texnologiyalardan samarali foydalanish borasida yuqori natijalarga erishgan.

Shuningdek, ushbu rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda muammolar mavjuddir. Bu mamlakatlar sanab o'tilgan muammolarga tizimli ravishda bir qator islohatlar hamda dasturlar ishlab chiqishganlar:

3-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda muammolar va ularning yechimlari

Mamlakat	Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi muammolar	Yechimlar
AQSH	- Fermerlarning kredit olishdagi qiyinchiliklari. - Kichik va o'rta fermalarga kamroq yordam berilishi. - Ekstremal iqlim o'zgarishlari. - Bozor narxlari o'zgarishi.	- Davlat subsidiyalari va qo'llab-quvvatlash. - Kichik fermalarni moliyalashtirish uchun maxsus dasturlar. - Iqlim o'zgarishlariga qarshi innovatsion yechimlar.
Germaniya	- Qishloq xo'jaligiga subsidiyalar va investitsiyalarni o'rnatishdagi byurokratik to'siqlar. - Ekologik talablarning ko'payishi.	- Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga qaratilgan dasturlar. - Ekologik qishloq xo'jaligiga subsidiyalar. - Innovatsion moliyalashtirish vositalari.
Fransiya	- Qishloq xo'jaligi kreditlariga yuqori foiz stavkalari. - Fermerlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslar yo'qligi.	- Davlat tomonidan subsidiyalar va imtiyozlar. - Rivojlangan moliyaviy infrastrukturani yaratish. - Eko-fermerlik va barqaror qishloq xo'jaligi dasturlari.
Yaponiya	- Fermerlarning kreditga kirishdagi cheklovlar. - Kichik fermalarning banklardan moliyaviy yordam ololmasligi. - Iqlim sharoitlari va tabiiy ofatlar.	- Yuqori texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish. - Fermerlarga kredit taqdim etishda davlat ko'magining kuchayishi. - Xalqaro moliyaviy resurslar.
Kanada	- Qishloq xo'jaligi investitsiyalarining ko'pligi va yuqori risklar. - Iqlim o'zgarishlari va ekologik tahdidlar.	- Iqlimga moslashuvchan qishloq xo'jaligini rivojlantirish. - Rivojlangan sug'urta tizimlari. - Mahalliy fermerlar uchun kredit imkoniyatlarini kengaytirish.
Avstraliya	- Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning yetishmasligi. - Iqlim o'zgarishlari va tabiiy ofatlar.	- Davlatning qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi qat'iy siyosati. - Ekstremal iqlim sharoitlariga qarshi strategiyalar. - Sug'urta va moliyaviy xavfsizlik.
Niderlandiya	- Kichik fermerlar uchun cheklangan moliyaviy imkoniyatlar. - Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozor narxlari o'zgarishlari.	- Kichik fermalarni moliyalashtirishga qaratilgan davlat dasturlari. - Innovatsion texnologiyalar va barqaror qishloq xo'jaligi uchun moliyaviy yordam.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki:

- Subsidiyalar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash: Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda

qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda davlat subsidiyalari va imtiyozlar asosiy yechim hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik va o'rta fermalarga yordam berish, iqlim o'zgarishlariga qarshi strategiyalarni ishlab chiqish masalalari keng muhokama qilinmoqda.

- **Innovatsion yechimlar:** Yangi texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan moliyalashtirish modellarining qo'llanilishi qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirishda yordam beradi.

- **Iqlimga moslashuvchanlik:** Iqlim o'zgarishlari va tabiiy ofatlar rivojlangan mamlakatlar uchun katta muammo tug'diradi. Bu muammoni hal qilish uchun sug'urta tizimlari, ekologik qishloq xo'jaligi va boshqa innovatsion yechimlar ishlab chiqilmoqda.

Bu mamlakatlarning tajribasi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Shu o'rinda mavzuni yakunlar ekanmiz mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularga samarali yechimlar ishlab chiqish zarur. Quyida mavjud muammolar va ularni yechish bo'yicha rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan kelib chiqqan holda tavsiyalar beramiz:

Muammolar:

Qishloq xo'jaligi sektorida ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun zarur moliyaviy resurslar mavjud emas. Fermerlar ko'pincha banklardan kredit olishda qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ular uchun moliyaviy imkoniyatlar cheklangan va kreditlarning foiz stavkalari yuqori;

O'zbekistondagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, asosan, arzon xarajatlar asosida ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, fermerlar uchun yuqori darajadagi texnologik va ilmiy yordam yetishmaydi, bu esa mahsulotlarning raqobatbardoshligini past darajada saqlaydi;

Fermerlar va ishlab chiqaruvchilar bozor sharoitlarini tahlil qilishda qiynaladi. Bozor narxlari, talab va taklif tahlili, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun prognozlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

Qishloq xo'jaligida suv resurslari samarali ishlatilmayapti, bu esa sug'orish tizimlari va suvdan foydalanishda isrofn keltirib chiqaradi. Bu muammo, ayniqsa, sug'oriladigan yer maydonlarida o'sishda yuzaga kelmoqda;

Qishloq xo'jaligiga katta investitsiyalar jalb qilishdagi qiyinchiliklar mavjud. Ko'p hollarda, investitsiyalar risklar bilan bog'liq va tez natija bermaydi.

Yechimlar:

Kredit shartlarini yengillashtirish: Banklar tomonidan qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan kreditlar uchun foiz stavkalarini pasaytirish va uzoq muddatli kreditlar taklif qilish. Maxsus davlat dasturlari orqali qishloq xo'jaligi kreditlarini subsidiyalash;

Mikro kreditlash tizimlarini rivojlantirish: Kichik va o'rta fermerlar uchun maxsus mikro kreditlash tizimlarini joriy etish. Ular uchun oson kredit olish imkoniyatlari yaratish;

Xalqaro moliyaviy resurslar jalb etish: Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirish uchun grantlar va uzoq muddatli kreditlar olish;

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish: Qishloq xo'jaligiga yuqori texnologiyalarni joriy etish, aqlli fermerlik tizimlarini va avtomatlashtirilgan qishloq xo'jaligi jarayonlarini rivojlantirish;

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion markazlar yaratish: Fermerlarni o'qitish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot institutlarini rivojlantirish va ilmiy markazlar ochish;

Boshqaruv tizimini yaxshilash: Qishloq xo'jaligi sektorining boshqaruv tizimini yaxshilash va fermerlarga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bilim va resurslarni taqdim etish;

Bozor monitoringini yaxshilash: Bozor sharoitlarini tahlil qilish uchun milliy va mahalliy darajadagi bozor tahlil markazlarini tashkil etish. Yangi texnologiyalar yordamida bozor prognozlarini yaratish;

Ma'lumot almashish tizimlarini joriy etish: Fermerlar va qishloq xo'jaligi ishqibozlari uchun bozor, texnologiyalar va moliyaviy imkoniyatlar haqida tezkor va aniq ma'lumotlar taqdim etadigan platformalarni yaratish;

Raqamli tizimlarni rivojlantirish: Qishloq xo'jaligida raqamli tizimlar va axborot texnologiyalarini joriy etish, bu orqali fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun real vaqt rejimida bozor ma'lumotlarini olish imkonini yaratish;

Suvni tejash va boshqarish dasturlari: Suv resurslarini boshqarish va tejash bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqish. Suvni tejash bo'yicha fermerlarni o'qitish;

Suvning raqamli monitoring tizimlarini joriy etish: Sug'orish tizimlarini nazorat qilish va samaradorligini oshirish uchun raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish;

Investitsiya muhiti yaratish: Qishloq xo'jaligiga investitsiya kiritishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari va boshqa qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

Jamoaviy investitsiya dasturlari: Fermerlar va ishlab chiqaruvchilarni investitsiyalarni birlashtirib amalga oshirishga rag'batlantirish, ya'ni qishloq xo'jaligi sektori uchun kooperatsiyalarni rivojlantirish;

Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish: Xalqaro moliya institutlari va investorlardan mablag' jalb qilish, xalqaro grantlar va kreditlarni olish orqali sektorga investitsiya oqimlarini yo'naltirish.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sektorini moliyalashtirishni takomillashtirishda yuqoridagi muammolarni hal qilish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, innovatsion yechimlar va samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish zarur. Bu nafaqat fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun, balki butun iqtisodiyot uchun ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Binswanger, H.P., & Deininger, K. (1997). "Explaining Agricultural and Agrarian Policies in Developing Countries". Journal of Economic Perspectives, 11(3), 195–206.

Jabborov S.Sh. (2021) "Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish va moliyaviy yordamlar" – Toshkent.

Karimov R.A. (2019) "Qishloq xo'jaligi sektorida moliyaviy risklarni boshqarish". Toshkent: Fan va texnologiyalar,.

Morduch, J. (1999). "The Microfinance Promise". Journal of Economic Literature, 37(4), 1569–1614.

Pingali, P.L. (2007). "Agricultural Finance: Issues and Challenges in Developing Countries". FAO.

Qosimov O.T. (2020) "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarining roli". Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.

Xoliqov N.R. (2018) "Fermer xo'jaliklarini moliyalashtirishning iqtisodiy asoslari". Samarqand: Samarqand davlat universiteti.

Zander, K., & Drucker, A.G. (2008). "Regional Policies and Their Impact on Agricultural Development". Agricultural Economics Review, 10(2), 45–62.

Соколова И.А. (2022) «Финансирование сельского хозяйства: взаимоотношения государства и частного сектора» - Санкт-Петербург.